

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“KORPORATIV BOSHQARUV”
KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK:658:336(575.1)

JUMAYEVA GUZAL SHERXON QIZI

**O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV
SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘NALISHLARI**

**70411601 – Korporativ boshqaruv
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Urinov B.N.

TOSHKENT-2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Korporativ boshqaruv” kafedrasida dastlabki himoyadan oʻtgan.

32 -sonli bayonnoma “ 5 ” 04 2024 y.

Kafedra mudiri: B.N. Urinov

29.05.2024
sana


imzo


Ilmiy rahbar: B.N. Urinov

28.05.2024
sana


imzo

Talaba: G. Sh. Jumayeva

28.05.2024
sana


imzo

Dissertatsiya “Korporativ boshqaruv” kafedrasida 2024 yil “ _____ ”

№ _____ raqami bilan roʻyhatga olingan.

Kafedra mudiri



B.N. Urinov

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot korporativ tuzilmalarda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash tizimining joriy holati va muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, nazariy emas, balki analitik usullarga taalluqlidir. Biz korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati, baholashning tashkiliy jihatlari, korporativ tuzilmalarda samarali korporativ boshqaruvni yaratish tamoyillari va mexanizmlari, korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning jahon tajribasi va O'zbekistonda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash masalalarini tahlil qildik.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida respublikamizning aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning holati va qay darajada amalga oshirilayotganini, xususan, "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyatida o'rganib chiqdik. Statistik ma'lumotlar tahliliga asoslangan, o'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida biz O'zbekiston korporativ boshqaruv samaradorligini baholash tizimiga oid ilmiy-amaliy xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: Samarali korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv samaradorligi, korporativ boshqaruvni baholash, aksiyadorlik jamiyatlari, fond birjasi, reyting agentliklari.

ABSTRACT

This research is aimed at analyzing the current state and problems of the system of assessing the effectiveness of corporate governance in corporate structures, and it is not theoretical, but analytical methods. We have analyzed the essence and importance of assessing the effectiveness of corporate governance, organizational aspects of evaluation, principles and mechanisms of creating effective corporate governance in corporate structures, world experience of assessing the effectiveness of corporate governance, and issues of assessing the effectiveness of the corporate governance system in Uzbekistan.

In order to increase the practical value of the scientific work, we studied the status and extent of assessing the effectiveness of corporate governance in the joint-stock companies of our republic, in particular, in the joint-stock company "Commodity Exchange of the Republic of Uzbekistan". On the basis of statistical data analysis, studied and analyzed data, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations regarding the assessment of the effectiveness of corporate governance in Uzbekistan.

Key words: Effective corporate governance in Uzbekistan, efficiency, corporate governance assessment, joint-stock companies, stock exchange, rating agencies.

MUNDARIJA

Annotatsiya	2
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar	7
KIRISH	8
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	8
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	10
Tadqiqotning obyekti va predmeti	10
Tadqiqotning ilmiy yangiligi	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
1.1. Kirish	14
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	20
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	27
1.4. Xulosa	28
II BOB. METODOLOGIYA	28
2.1. Tadqiqot dizayni	28
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	29
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	35
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoit	35
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammo va ularning yechimi	36
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	37
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	37
3.1 O'zbekistonda korporativ boshqaruv va uning holati	42
3.2. "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" aksiyadorlik jamiyatining korporativ boshqaruvni baholash tahlili....	54
3.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	56
XULOSA	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	63
ILOVALAR	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Korporativ boshqaruvga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan bir sharoitda, kompaniyalar va mamlakatlar bo'yicha KB samaradorligini solishtirish uchun mustaqil, xalqaro miqyosda taqqoslanadigan baholashlarga ehtiyoj bor. Korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlash iqtisod fanining eng kam o'rganilgan yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, KB samaradorligini ishonchli baholash juda muhim, chunki uning natijalari iqtisodiy munosabatlar subyektlari, shu jumladan potentsial investorlarning qarorlarini qabul qilishga ta'sir qiladi.

Ayni vaqtda, O'zbekistonda KBning zamonaviy usullarini joriy etish, dividend siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish, boshqaruv samaradorligini oshirish va nazorat qilish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standart talablari asosida tuzish hamda aksiyador-investorlar uchun yuqori daromadni ta'minlash naqadar muhim ekanligini tushunish qiyin emas. Bu mamlakat iqtisodiyoti o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlanishi hamda KB sifati va samaradorligi masalariga e'tiborning kuchayishiga olib keladi. Bu yo'lda korporativ tuzilmalar KB tizimini rivojlantirish bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarda korporativ munosabatlarning investorlar uchun ochiq va shaffofligini ta'minlash hamda, korxonalar faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston korporativ tuzilmalarida KB tizimi shaklan va mazmunan xalqaro standartlarga moslashib bormoqda. Bu borada, KB tizimini chuqur isloh qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilinib, ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720 sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda PQ-2454-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori,